

New Uzbekistan Reforms as a Factor in Shaping a Well-Rounded Generation

Tulanova Nargiza Mamirovna¹, Xakimov Abror Maksimovich², Muhtar Hidayat³

¹ Alisher Navoiy University, Uzbekistan

² Joint Belorussian - Uzbek Intersectoral Institute, Uzbekistan

³ Institut Islam Mamba'ul 'Ulum Surakarta, Indonesia

Article Info

Received: 15 March 2026

Revised: 27 March 2026

Accepted: 5 April 2026

Online Version: 12 April 2026

Corresponding Author:

Tulanova Nargiza Mamirovna,
Ph.D., senior lecturer, A. Navoi
University of Uzbek Language
and Literature, Uzbekistan.

Email:

nargizatulanova6@gmail.ru

Abstract. This study aims to analyze the role of family education, cultural values, and the importance of integrating knowledge in shaping the character of a quality young generation. The background of this research is based on the phenomenon that various problems are still found in children's education, despite the development of various methods and approaches. This study uses a descriptive qualitative approach with a library study type. Data were obtained from primary sources in the form of conceptual ideas relevant to the research theme, as well as secondary sources from literature in the fields of Educational Science, Educational Sociology, and Developmental Psychology. The data collection technique was carried out through documentation studies, while data analysis used content analysis methods. The results of the study indicate that the family plays a fundamental role as the first environment in the formation of children's character, where parental role models are a major factor in educational success. In addition, cultural values, such as respect for parents and elders, are important elements in building a personality with noble character. This study also emphasizes that the integration of knowledge and moral values is essential to create balance in individual development. Thus, the synergy between family, education, and culture is the main key to creating a superior generation, with character, and able to face the challenges of the times.

Keywords: perfect generation, scientist, thinker, opportunity, right, reform, education, person, value, ancient, behavior, oriental education, respect for knowledge, spirituality, etiquette, blessing, ego, Islamic religion, recognition, homeland, problem, independence, invader, Alpomish.

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotning maqsadi yosh avlodning barkamol shaxs sifatida shakllanishida oila tarbiyasi, milliy qadriyatlar hamda ilm integratsiyasining o'rnini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ta'lim-tarbiya sohasida turli metod va yondashuvlar ishlab chiqilganiga qaramay, farzand tarbiyasida muammolar hanuz mavjudligi kuzatilmoqda. Tadqiqot sifat (kvalitativ) tavsifiy yondashuv asosida olib borilib, kutubxona tadqiqoti turiga kiradi. Ma'lumotlar birlamchi manbalar sifatida mavzuga oid konseptual qarashlar hamda ikkilamchi manbalar sifatida Pedagogika, Ta'lim sotsiologiyasi va Rivojlanish psixologiyasi sohalariga oid ilmiy adabiyotlardan olindi. Ma'lumotlar hujjatlarni tahlil qilish usuli orqali yig'ildi va kontent tahlil yordamida o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oila farzand tarbiyasining eng muhim va birlamchi muhitidir. Ayniqsa, ota-onaning shaxsiy namunasi bola kamolotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, keksalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi milliy qadriyatlar yoshlar ma'naviyati shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotda ilmiy

bilimlar bilan axloqiy qadriyatlarni uyg'unlashtirish zarurligi ham asoslab berildi. Xulosa qilib aytganda, oila, ta'lim va madaniyat o'rtasidagi uzviy hamkorlik barkamol, ma'naviy yetuk hamda zamon talablariga mos avlodni tarbiyalashning asosiy omili hisoblanadi.

Kalit so'zlar: barkamol avlod, olim, mutafakkir, imkoniyat, huquq, islohot, tarbiya, shaxs, qadriyat, qadimiy, muomala, sharqona tarbiya, ilmni e'zozlash, ma'naviyat, odob, baraka, nafs, islom dini, e'tirof, ona yurt, muammo, mustaqillik, bosqinchi, Alpomish.



© 2026 by the author(s)

This article is an open-access article distributed under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution-ShareAlike 4.0 International

(CC BY SA) license (<https://creativecommons.org/licenses/by-sa/4.0/>).

Journal Homepage	https://ejournal.aripendis.com/edulogia
How to cite:	Mamirovna, T. N., Maksimovich, X. A., & Hidayat, M. (2026). New Uzbekistan Reforms as a Factor in Shaping a Well-Rounded Generation. <i>Edulogia: Jurnal Pendidikan dan Keislaman</i> , 1(3), 162-168.
Published by:	Yayasan Pendidikan Islam Bintang Nusantara

INTRODUCTION

Yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning yetuk insonlar bo'lib kamol topish yo'lida bugun hukumatimiz tomonidan misli ko'rilmagan darajada keng imkoniyatlar yaratilib berilmoqda. Mana shunday imkoniyatlardan jo'shib, ilhomlangan yoshlar iftixor bilan so'zlayotganlarida katta avlod vakillari ham o'z yoshliklarini eslab ularga havasi keladi. Binobarin havasga arziydigan ne'matga ega bo'libmizmi uning qadriga yetish birinchi galdagi vazifamiz. Mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish har bir o'qituvchi va murabbiylarning vazifasi, qolaversa, ota-onalarning burchidir. Negaki, har qanday rivojlangan mamlakat bo'lsin, ma'muriy jamiyat bo'lsin, ularning asosida oila turadi. Bu borada elning go'zal hikmatli so'zi bor: qush uyasida ko'rganini qiladi. Demak, ana shu asosga katta e'tibor qaratish lozim.

Odanzod mavjud ekan jamiyat bo'lib yashaydi. Jamiyatning farovonligi unda hukm surgan ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Jamiyat uchun muhim bo'lgan jihat, ya'ni yoshlar tarbiyasi yuzasidan har davrda o'zining zamoni va makoniga mos tarzda olim va ziyolilar yetarlicha o'git berib kelganlar. Bola asosan tarbiyani oilada oladi. Oila esa – ota-onadir. Ota-ona uchun esa farzand eng qadrli va ulug' ne'mat. Shu tomondan ham farzandining yaxshi inson bo'lib voyaga yetishi yo'lida birinchilardan bo'lib ota-onalar qayg'urishadi. Xo'sh, farzandning mas'uliyati ota-ona zimmasida ekanligi ko'p aytilayotgan bo'lsa, ana shu mas'uliyat zamirida ne hikmat bor? Birinchidan, farzand dunyoga kelishi har birimizga ma'lumki oilaning mustahkamlik rishtasidir. Ikkinchidan, oilaning quvonchi, muhimi er-xotin orasidagi rishtaning mazmuni, ya'ni oilaning ustuni hamdir. Shundan kelib chiqadiki, farzandning qadr-qimmatini oila uchun bebaho ekan. Agar shu oilada farzand tug'ilmaganda o'rtada iliq munosabatlar bo'larmidi, degan aniq savolga javob izlab ko'rilsa vaziyat yanada ravshanlashadi. Demak, farzandning oilaviy hayotga mazmun bag'ishlayotgani oydinlashgach, navbatdagi savol o'rtaga chiqadi. Endi u komil inson bo'lib voyaga yetsa-yu, ota-onaga, yana ham aniqrog'i butun oilaga ko'p manfaatlar yetkazsa qanday bo'ladi? Yoki aksincha bo'lsachi? Har ikki holatni nazarda tutib xulosa

qilinsa farzand tarbiyasi masalasi ota-ona uchun juda muhim ekanligiga amin bo'lamiz. Shundan ma'lumki, farzand tarbiyasida jon kuydirish ota-ona uchun ham farz ham qarz bo'lib qoladi. Bu borada butun boshli jamiyat manfaatiga keladigan bo'lsak, bu masalaga yanada oydinlik kiradi..

RESEARCH METHOD

Mazkur tadqiqot sifat (kvalitatif) tavsifiy yondashuv asosida olib borilib, kutubxona tadqiqoti (library research) turiga kiradi. Ushbu yondashuv tanlanishining asosiy sababi – tadqiqotning mazmuni ta'lim-tarbiya, ayniqsa oila muhitida farzand kamoloti, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar hamda ilmning uyg'unligi masalalarini chuqur tahlil qilishga qaratilganidir.

Tadqiqot manbalari birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlardan iborat. Birlamchi ma'lumotlar sifatida mazkur mavzu doirasida bildirilgan fikrlar, konseptual yondashuvlar hamda muallifning tahliliy qarashlari olinadi. Ikkilamchi manbalar esa ta'lim va tarbiya masalalariga oid ilmiy adabiyotlar, xususan Pedagogika, Ta'lim sotsiologiyasi hamda Rivojlanish psixologiyasi yo'nalishlariga oid manbalardan tashkil topadi.

Ma'lumotlarni yig'ish jarayoni hujjatlarni tahlil qilish (dokumentatsiya) usuli orqali amalga oshirildi. Bunda ta'lim-tarbiya, ota-onaning roli, sharqona qadriyatlar, shuningdek, badiiy adabiyotning inson tarbiyasidagi o'rni haqidagi yozma manbalar o'rganildi va tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida kontent tahlil (content analysis) usulidan foydalanildi. Ushbu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: (1) ma'lumotlarni saralash va tadqiqot mavzusiga mos qismlarini ajratib olish; (2) ularni tizimli ravishda tavsiflash va bayon etish; (3) umumlashtirish orqali asosiy xulosalarni shakllantirish.

Mazkur metodologiya asosida tadqiqot natijalari oila, ta'lim-tarbiya va milliy qadriyatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib berishga, shuningdek, barkamol avlodni shakllantirishda ushbu omillarning ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi.

RESULTS AND DISCUSSION

Hamamiz uchun aziz bo'lgan farzand tarbiyasi bilvosita yoki bevosita metodologiyasini allaqachon olimlar, ulug' insonlar bosqichma-bosqich bayon qilib berishgan bo'lsa, bugungi kunda ham mutaxassislar bu borada yetarli darajada o'z tavsiyalarini taklif qilyapti. Eng qizig'i, shuncha urinishlar, tajribalar, ilmlar, qo'llanmalar bo'lishi barobarida hamon farzand tarbiyasi masalasida muammolar yetarlicha. Shu sababli ustozlar o'gitini eshitib, o'qib, o'rganib va jamiyatdagi holatlar bilan muqoyasa qilingandan keyin o'z fikrlarimni qog'ozga tushirishga ehtiyoj sezdim.

Ilmiy adabiyotlarda tarbiya haqida berilgan ma'lumotlardan mavzuga oid bo'lgan misolni keltiraman: "Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida shaxs ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi" [1].

Ma'lum bo'lyaptiki, ota-ona uchun farzand qancha qadrli bo'lsa, jamiyat uchun ham uning tarbiyasi juda muhim ekan. Demak, farzand tarbiyasiga yuzaki qarashga hech bir ota-onaning haqqi yo'q. Nega faqat ota-onaga urg'u berilyapti? Chunki jamiyat yoki oiladagi boshqa odamlar ham mas'uldirlar degan savol paydo bo'lishi mumkin. Bunga

javoban aytamizki, har bir farzandning yaxshiligi ham, yomonligi ham eng avvalo ota-onaga nisbat beriladi. Elimizda bir gap bor, biror begona o'spirinning qilgan ishidan yoki muomalasidan xursand bo'lgan kishilar: "Otasining o'g'li, baraka top, senga tarbiya bergan ota-onangga rahmat" degan jummalarni ishlatishadi. Islom dinida ham farzand qadri-qimmatini yuzasidan uni to'g'ri tarbiyalash, ikrom qilish haqida juda ko'p ko'rsatmalar ota-onaga qaratilgan.

Binobarin har bir ota-ona o'z farzandining yetuk bo'lib voyaga yetishini istar ekan, shunchaki quruq istak bilan yoki keragidan ortiqcha sharoit yaratish bilan ko'zlangan maqsad hosil bo'lmasligi aniq hayotiy haqiqatligini ham e'tibordan chetda qoldirmaylik. Bolaning bir oti tayoq, deganda dona xalqimiz tarbiyaning yaxlit tushunchasini aytib qo'yibdi. Asrlar bo'yi sayqallanib kelgan hikmatdan kelib chiqib aytish kerakki, bolaga adab berish maskani oila ekan. Ota-ona farzandga qanday adab beradi? Qanday va nimalar asosida o'rnak bo'lishi lozim? Avvalo aytganimizdek farzand birinchidan Alloh taoloning bandalariga bergan ulug' ne'mati, shuningdek oilaning davomiyligini ta'minlaydigan o'rinbosar. Unda shu baxtga munosib bo'lish mas'uliyati har birimizdan o'ta jiddiy sa'y-harakat qilish talab etiladi. Tarbiya berishni-ku shu yo'sin har bir ota-ona yetarli darajada o'qib-o'rganishi mumkindir. Ammo bolaga o'rnak ko'rsatish tarbiya berishning asosi ekanligini unutmaylik. Bola sutdek oppoq tasavvurda hayotdan ta'lim ola boshlaydi. Dastlab ko'rganlaridan o'rganib boradi. Oilada er-xotin muomalasi chiroyli bo'lsa, uning beg'ubor olami go'zal shakllana boshlaydi. Aksincha, oilada jerkinib gapirish, qarg'ash, so'kinish kabi illatlarni eshitib ulg'ayishi uni hayotdan alamzada qiladi. Beg'ubor tuyg'ulari illat bilan shakllangan bolalar jamiyatga kirib borganda ham o'sha nuqsondan qutulolmaydi. Bu borada juda ko'p eshitgansiz va bilasiz. Tarbiya masalasining eng nozik va eng muhim jihatini hech bir vaqt unutib bo'lmaydi. Ikkinchidan, sharq xalqlari, ya'ni o'zbek oilalarida noyob bir jihat bor. Bu hodisa bizning millatimizning ulkan yutug'idir. Bu nima ekan deysizmi? Albatta bu haqda ko'p eshitganmiz, xo'p o'qiganmiz, hayotimizda esa har oilada uchraydigan bir jihatki, faqatgina sharq xalqlarida ustuvor bo'lgan holat. Bu o'ziga xoslik esa keksalarga hurmat ko'rsatish! Nega rivojlangan g'arb dunyosining ta'lim-tarbiya jarayonida bu jihatga hech urg'u berilmaydi. Chunki ularning oilasida o'n sakkiz yoshga to'lganlar o'z hoxishiga ko'ra yashay boshlaydi. Keksalar uning huquqiga daxl qilishi mumkinmas. Xuddi shunday keksalardan mas'uliyat olib tashlangani kabi, farzandlar ham keksalarni parvarish etish, ularga hurmat ko'rsatib xizmatini qilish tuyg'ularidan begona bo'lib o'sadi. Bu ularning tamoyili, sharqda esa mutlaqo o'zga olam. Shuni hech e'tibordan chetda qoldirmasligimiz shart.

Keksa kishini hurmat qilish oddiy gap emas. Misol uchun, oilada keksa bobosi yoki momosi bor bolaning tarbiyasi bilan alohida yosh oilada voyaga yetgan bolaning xulqida bir xillik sezasizmi? Bolaga ibrat bo'lishda birinchi navbatda ota-ona o'zining ota-onasini, kelin bo'lsa shu oiladagi qaynona-qaynotasiga samimiy hurmat bilan munosabatda bo'lishi kerak. Keksalar oldida boshqacha munosabat, orqasidan boshqacha gap-so'zlarni aytish chog'ida bola zukko bo'lishiga e'tibor qaratilsa, ular samimiylik bilan soxtalikni tez farqlaydilar. Sharqda tarbiyaning asosida keksalarga hurmat ko'rsatib, ikrom qilish, ularning ko'ngliga qarab muomala qilish, o'z o'rnida kichiklarga izzat ko'rsatish juda muhimligi o'ziga xosdir [2].

Odamzod ulug' yoshga yetganda yana bola kabi injiq bo'lib qoladi. Buni ilm ham, halim ham, donishmandlar ham birdek ittifoq qilishgan. Buning ustiga quvvatdan ketadi, dardmand bo'lib qoladi va hokazolar. Ularga nisbatan qilinayotgan munosabatlar, muomalalarni bolalar ziyraklik bilan kuzatib borishadi. Chunki ota-onadan ko'ra bola uchun ulug' yoshdagi mehribon qarindoshi suyukli bo'lishining bir sababi, ular bola kabi munosabatda bo'lishidir. Ana shu tarbiya jarayoniga oilalarda diqqatliroq bo'lishsa, qolganlari o'z o'rniga tushib ketishi osonlashadi. Bundan esa butun boshli jamiyat katta

naf ko'radi. Davlat e'tibor topadi. Boshimizga tushishi ehtimoli bo'lgan mushkulotlarning qanchasidan xolos bo'lamiz.

O'zini hurmat qiladigan va o'z qadrini biladigan kishilar kimlar? Ana shunday kishilar ota-onani e'zozlaydi, qarindoshlarga mehr ko'rsatadi, oila mustahkamligini ta'minlaydi. Farzandlarini ilm olishga yo'llaydi. Bordi-keldi munosabatlarda ham madaniyatli bo'lishga intiladi. Qarindosh-urug'ning ham hurmatini qiladi. Eng muhimi sharqona hayotiy munosabatning duru gavhari bo'lgan keksalarga hurmat ko'rsatish, kichiklarni izzat qilish madaniyatini sayqallab boradi. Chunki hayot muomaladan iborat. Shirin va chiroyli muomala esa so'zlar holati va mohiyatini anglashga bog'liq. Bu borada ham sizni bizga ko'mak beradigan yana badiiy asarlar bo'ladi. Negaki, badiiy adabiyotlarda shaxslarning hayoti batafsil ochib beriladi. Qaerda, qanday kimga munosabat qilishning ibratli namunalari keng yoritib berilgan. Biz holatiga qarab keragicha ulardan andoza olamiz. Adabiyot so'zlarning vaznini, kuchini, sehrini ochib beradigan dastur kabidir. Butun boshli bir jamiyatni bilish uchun albatta so'zlarning mag'zini chaqish kerak. Bularning hammasi ongimizga so'z orqali o'rnashadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida adabiyot bir dasturxon vazifasini o'taydi. Dasturxon atrofida oila jam bo'lgani kabi, har birimiz kitobxonlikdan bahra olishimiz yutuqlarimiz garovidir.

Yer yuzidagi kishilik jamiyatida ziddiyatlar, qirg'inbarot urushlar tinimsiz sodir bo'laverar, ammo hech bir vaqtda ta'lim-tarbiya yo'lida ilm o'rgatish va o'rganish to'xtab qolgan emas, qanday vaziyat bo'lmasin olimlar o'z burchini xolisona ado etganidan hayotimizda ilm nuri so'nmagan. Nohaqliklarni muolaja qiladigan ulug' insonlar ko'p bo'lgan. Ayni paytda ham kasbiy ilmlarning tabiiy turli sohalarga ajralishini o'z yo'liga qo'yib turaylikda, diniy va dunyoviy ilmlar o'rtasidagi sarhad-chegarani bir o'ylab ko'raylik, bundan kimga foyda-yu – kimga zarar. Vaqt – zamon, bandalar qanday yo'l tutsa ham Alloh taolo taqsimlagan shaklda harakatlanaveradi. Zamon va makonda odam farzandi qadr-qimmatini belgilab beradigan ILMni e'zozlash bilangina odamlar o'z sharafini ziyoda qiladi. Ilmni e'zozlash esa uni o'rganish barobarida har bir banda o'z hayotiga tatbiq qilishi lozim ekan. Avvalo ta'lim-tarbiya berayotgan kimsalar – ota-onalar, o'qituvchi va murabbiylar o'zlari maqsadni aniq va tiniq anglagan bo'lishi lozim. Ana shunda tarbiya berish yo'lidagi sa'y-harakatlari mazmunli bo'lib, natija berishi osonlashadi.

Bu borada har bir inson o'zicha fikr qilishi, muayyan bir to'xtamga kelishida eng zarur qo'llanma badiiy adabiyot yoki ulug'larimizning pand-nasihatlarini bebaho dasturulamalligini esdan chiqarmasligi maqsadga muvofiq. Xo'sh, hayot tajribasini ko'rgan ulug'larimiz hammamizga ma'lumdir. Har bir xayrli ishlarimizda ulardan duo olamiz, mabodo muammoga duch kelsak maslahatiga muhtojlik sezamiz. Tabiiyki, ularga murojaat etish biz uchun unchalik muammo emas. Ammo keyingi yillarda kitobxonlik haqida ko'p aytilmoqda. Kitob o'qishning fazilati nimada degan o'rinli savol paydo bo'lishi turgan gap. E'tirof etilgan badiiy adabiyot haqida yorqinroq fikrga kelish uchun yana ziyoli ulug'larimizga murojaat qilmoqchiman.

Taniqli olim va mutafakkir zamondosh ustozimiz Begali Qosimov badiiy adabiyotga shunday ta'rif bergan: "Adabiyot ma'naviyat atalmish hodisaning mag'zini tashkil qiladi. Chunki Sharqda bu tushuncha, birinchi navbatda, adab (odob) bilan bog'liqdir. Istilohning o'zi "adab"dan olingandir. Adabning ma'nosi keng: yurish-turish odobi, so'zlash odobi, o'zaro muomala odobi. Bular hatto juda qat'iy qoida holiga keltirilgan. Masalan, XV asrning mashhur adiblaridan Husayn Voiz Koshifiy xabar berishicha, birgina taom yemoqning 37 xil odobi bo'lgan [3].

Adabiyot, shu jihatdan odobshunoslikdir.

Adabiyot garchi "adab" so'zidan olingan bo'lsa-da, faqat bu bilan chegaralanib qolmaydi. U bizga inson hayotidan so'zlab beradi. Uning qalbi, orzu-intilishlari, sevinch-

armonlari, qayg'u-iztiroblari, bir so'z bilan aytganda butun borlig'ini oynadek namoyon etadi. Demak, adabiyot insonshunoslikdir.

Odamlar muayyan zamon va makonda yashaydilar, ya'ni har bir kishining hayot sanalari, tug'ilib, faoliyat ko'rsatadigan joyi bor. O'z hayoti bor. Ular yashash uchun, muayyan ideallar uchun kurashadilar. Yengadilar, yengiladilar. Biz buni tarix deymiz. Adabiyot inson faoliyatini yoritir ekan, o'zi bilmagan holda uning tarixini yoritadi. Demak, adabiyot tarix hamdir.

CONCLUSION

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, hech shubhasiz, odamzodning beshikdan to qabrgacha bo'lgan hayot yo'li adabiyotlarda adabiy qahramonlar timsolida o'z aksini topgan. Shuning uchun hayotda o'z munosib o'rnimizni topish yo'lida teran fikrlash uchun aynan shu oynaga qarab o'zligimizni ko'ramiz. Keng miqyosda fikrlashimizda, ya'ni jamiyat hayotini te'ran kuzatishimizda kitobxon bo'lish kabi imkoniyatimizni oshirar ekan. Bugungi texnologiya taraqqiyoti davridagi dunyoda ko'proq o'qish zaruratini talab qilyapti. Qadam sayin kishini chalg'itadigan ma'lumotlar shunchalik ko'payib ketdiki, har lahzada aldanib hayotdagi yo'lni yo'qotish hech gapmas. Ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos yo'li bor. Duch kelgan kitobni o'qish, o'zgalarga ergashib odob o'rganish, internetdagi sarhadsiz ma'lumotlardan foydalanish bizni o'z o'zanimizdan chiqarib yuboradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya olishda muayyan tartibotlar mavjud. Har bir millat o'zligini bilishi lozim. Chunki hayot qonuni shunday. Buning ma'nosi shuki, yer yuzi hayotida odamlar millatlarga jam bo'lib ayro-ayro davlat bo'lib yashaydi. Maqsadi ham, istiqomati ham, kelajagi ham, ya'nikim yashash tarzi shu birlikdagi ta'limning saviyasiga bog'lik. Xususan, o'z davlatimiz haqida gapiradigan bo'lsak, eng avvalo o'zligimizdan saboq beradigan uzoq tarixga ega bo'lgan qadriyatlarimizni bilish talab etiladi. Bular xalq dostonlarida, ertaklarimizda, xalq qo'shiqlarida, maqol va matallar, topishmoqlar kabi milliyligimizni ko'rsatib beradigan badiiy xalq og'zaki va yozma manbalaridir. Albatta har bir o'zbek farzandi maktab partasida "Alpomish" dostonidan boshlab laparu alyorlarimizgacha yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan yurtimizdagi ta'lim-tarbiyada tariximiz unutildi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin ta'lim-tarbiyada katta yo'qotishlardan so'ng bu borada katta muammolarga duch kelmoqdamiz. Aslini olsak, bosqinchilar tomonidan yurtimiz qul qilinishining birinchi sababi, taraqqiyotdan ortda qolgan xonliklarda ta'lim-tarbiyaga bir tomonlama yondoshish tufayli inqirozga yuz tutgandik [4]. Ya'ni diniy ilmga mukkasidan ketgan tor fikrli ulamolar qo'lida qolgan ma'rifat bo'g'ildi. Ular madrasalarda fanlarni o'qitishni ta'qirlab o'z nafi uchun talabalarni savodsiz qilib qo'ydi. Shuning ortidan katta boylik orttirishdi. Nafsig qul bo'lib qolgan arboblarning noshudliklari tufayli ONA yurtimizning boy berilishiga olib keldi. O'rtada jabr chekkan oddiy va avom xalq bo'ldi. Bosqinchilar kelib ta'lim tarbiyamizdan dinni butkul chiqarib tashlab, faqat fanlarning ilm sifatini taqdim qildi. Alloh taolo yerdagi bandalariga ulug' ne'mat qilib berib qo'ygan ilm ne'matini ikkiga bo'ldik: diniy va dunyoviy.

Ta'bir joiz bo'lsa, dunyoviy ilmlarni inkor qilib faqat dinga mukkasidan ketgan bir tomonlama qarashlar tufayli qul bo'lgan yurtimiz qora xalqning azobi qattiq bo'lgandi. Xudosiz va dinsiz bosqinchilar tomonidan diniy ilmlar mutlaqo inkor qilinib ta'lim-tarbiyada katta yo'qotishlarga duch kelganimiz o'sha-o'sha tarafkashlikning oqibatidir.

Bugun bizning yurtimizdagi ilgari surilayotgan ta'lim-tarbiya metodologiyasida barkamol avlod tarbiyasi yo'lida ilmga qo'yilgan sun'iy ayirmachiliklarni olib tashlab mukammal dasturlar asosida ish olib borish maqsad qilib qo'yilgan. Taraqqiyot bo'lishi uchun fanlardagi kashfiyotlar qancha zurur bo'lsa, odob-axloq yuksak bo'lishi uchun ming

yillik qadriyatlarimiz ham shuncha zarur. Har bir ilmni o'z o'rnida qo'llashni davr talab etyapti. Ildagi ayirmachilikning har ikki holatda ham oqibatini tarix bizga ko'zgu misoli ko'rsatib turibdi. Ildagi yakdillik milliy hamjihatligimizni ta'minlash kelajagimiz asosidir. Albatta har birimizning o'z fikrimiz, o'ziga xos dunyo qarashimiz mavjud. Lekin hayot haqiqati esa mutlaqo boshqa narsani ifodalab bermoqda. Insof yuzasidan nafsimizga nasihat qilib hayotning asliga murojaat qilaylik. Alloh taolo yer va osmondagi narsalarni odam bolasiga xizmat qilishga buyurgan ekanligi hammamizga ma'lum. Bugun mamlakatimizda isloh qilingan ta'lim-tarbiya masalasi o'zagida ham aslga xos xususiyatlar mujassam etilmoqda. Yurtning rivojlanishi barkamol avlod tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Bu yo'lda ota-onalar o'z burchini ado etsinlar, navbati bilan o'qituvchi-murabbiylar o'z vazifasini sidqidildan bajarsa, ilm-hunar o'rganayotgan yoshlarimiz o'zlarining qobiliyatiga muvofiq kasb-korlari bilan mashg'ul bo'lib oilalarda xotirjamlik muhiti yuzaga keladi. Bunga ishonchim komil. Axir biz dunyoda mavjud hamma ilmlar o'z o'rnida foydalansak, hayot qonuniyati bo'yicha eng yuksak rivojlangan davlat bo'lishimiz tabiiy holdir.

REFERENCES

- Slavin, R. E. **Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice**. Boston: Allyn & Bacon, 1995.
- Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Holubec, E. **Cooperation in the Classroom**. Edina, MN: Interaction Book Company, 1998.
- O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. — Toshkent: Adolat nashriyoti, 2021.
- To'xtasinov, K. **Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat**. — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
- Xoliqov, A., Yo'ldoshev, J. **Pedagogika nazariyasi va tarixi**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
- Nishonova, Z. **Interfaol metodlar: nazariya va amaliyot**. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
- Qodirova, F., & Mamarajabov, B. **Zamonaviy ta'lim texnologiyalari**. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.

Copyright Holder :

© Jumagul Abdurakhmanova et al (2026).

First Publication Right :

© Edulogia: Jurnal Pendidikan dan Keislaman

This article is under:

